NODIRA IJODIDA ILOHIY ISHQ TALQINI

F.Mamatqulova
QDU

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek mumtoz adabiyotining malika-shoirasi, Mohlaroyim-Nodira she’riyatidagi islomiy - tasavvufiy qarashlar mohiyati tahlilga tortiladi.

Kalit so‘zlar: tasavvuf, islom, talqin, ijod, jazba, komil inson, irfon, ma’rifat, g‘azal

INTERPRETATION OF DIVINE LOVE IN NODIR'S WORK

F.Mamatqulova
KSU

Abstract: This article analyzes the essence of Islamic-mystical views in the poetry of Mohlaroyim-Nodira, the queen-poetess of Uzbek classical literature.

Keywords: mysticism, Islam, interpretation, creativity, attraction, perfect person, wisdom, enlightenment, ghazal

Ma’lumki, o‘zbek mumtoz adabiyoti islom ilmi sarchashmalaridan ozuqa olib ravnaq topib keldi. Qaysi bir mumtoz adabiyot namoyandasi ijodini ko‘zdan kechirmaylik, unda islom nafasi, islomiy irfon ruhiini ko‘ramiz.

Shoira Nodira dunyoqarashining takomilida ham u mansub bo‘lgan islom dunyosining ma’naviy ta’siri katta o‘rin tutadi.

Biz tadqiq etmoqchi bo‘lgan Ishq tushunchasi falsafiy ma’no kasb etib, oshiqlik-haqsevarlik ma’rifatga shaydolikning oliy ko‘rinishidir. Qolgan barcha hollarda soxtakorlik, riyokorlik bo‘lishi mumkin, ammo ishqda, oshiklikda bu illat bo‘lmaydi. Faqat ilohiy ishqgina abadiyatga -baqo olamiga olib boradi.

Imom Abuhomid G‘azzoliy "Allohni sevish faqat jununi bor alohida shaxslar, aniq soliklarning fazilati emas, Alloh hamma uchun sevimlidir, chunki unda inson tasavvuridagi barcha ezguliklar, insonni o‘ziga tortuvchi, muhabbatiga sabab bo‘lguvchi ja’miki sifat va xislatlar mavjud.” Olim buni quyidagi omillar orqali tushuntiradi.

1. Inson o‘zini-o‘z kamoloti va xayotiga asos bo‘ladigan narsalarni sevadi;

2. O‘ziga yaxshilik qilgan, yordam berganlarni sevadi, umuman hammaga yaxshilik qiladigan saxovatli odamlarni sevadi, jumladan adolatli shohlar ham sevimli;

(cc) BY

3. Barcha go‘zal narsalar, nafosat olami xushro‘y va go‘zal narsalar sevimli;

4. Maslak va mazxab yuzasidan ham odamlar bir-birlarini yaxshi ko‘radilar.”[I.G‘azzoliy. “Ilm kitobi”. 2005 y.T. “Movaruunnahr” nashriyoti]

Bunda aniq bir shaxsning jismi yoki vujudi emas, balki uning ruhiy-ma’naviy olami nazarda tutiladi.

Buyuk faylasuf olim Platon ham bu borada shunday fikr bildiradi. Bu tushuncha “aflotuniy muhabbat" deyiladi. Platon nazariyasiga ko‘ra olam sevgi asosida vujudga kelib shu qonuniyat bilan xarakatdadir. Butun olam ashyolari o‘zaro "simpatiya", "mayl muhabbat" bilan bog‘langan. Go‘zal vujuddan, hayratlanish va zavqlanish quyidan yuqoriga qarab boradigan ruhiy taraqqiyotga zamindir. Bu kishining ideal muhabbat obekti mutlaq jamol barokatidur.

Nodiraning fikricha ham barcha sevimli narsalarda ilohning zarrasi bor. Bu dunyo lazzatidin kechib haqiqiy diydor lazzatini ixtiyor etmak shoiraning istagi, iltijosidir.

Ey, ko‘ngil yor uchun jahondin kech,
Havasu bog‘u bo‘stondin kech.
Anga uzluk bila yetib bo‘lmas,
Istasang yor vasli jondin kech.
Olam ahlida chun vafo yo‘qtur.
Bir yo‘la yaxshi-yu, yomondin kech.
yoki
Ko‘ngulni xobi g‘aflatdin dami bedor qil, yo rab,
Oqarg‘on ko‘zlarimni mahrami diydor qil, yo rab,
Ul oy xajrida chandon yig‘ladim, har qatra ashkimni,
Vafo bozorida bir gavhari shahvor qil, yo rab.[Nodira. Devon.T.O‘zbekiston nashr.1963 y. B.121.]

deb ilohiy ishqdan taskin izlaydi.

Nodira she’riyatida yana xayyomona falsafani ko‘ramizki, o‘zining teranligi va zakosi bilan kishining e’tiborini tortadi. Ma’lumki, Umar Xayyomda may obrazi shunday ilohiy butunlikka erishganki, bu yuksaklik shoirni may kuychisi ilohiy lazzat kuychisi sifatida taniydi

Soqiyo - hajr davosini demishlar mayinob,
Tutako‘r maykadada qayg‘uluk oshiqqa sharob,
Ishq dardig‘a giriftor bo‘libman na qilay,
Zohido, menga nasihat bila yetkurma azob. [O‘sha devon. B.135]

Ishq dardiga giriftor bo‘lgan ruhning oromi sharob-ilohiy lazzatdir. Go‘zallik ideali, qudrat ideali, poklik ideali, abadiylik ideali, ja’mi ideallar ideali. Uning o‘zi. Hayrat ham o‘shandan, g‘ayrat va shijoat ham, hayot nafosati ham Undan. Jonli va jonsiz har bir narsada hayotning qudratini mushohada etish, Uning go‘zalligidan

(cc) BY

hayratlanib, jo‘shib, olam-olam zavq olish, Ilohni “yori aziz”, “do‘st” deb bilish, unga sig‘inish, suyanish, Unga rozi dil aytish - mana so‘fiy shoirning estetik dunyosi, hayot mazmuni!

Ko‘rinadiki, so‘fiylarda real moddiy dunyo go‘zalligi inkor etilmaydi, balki real moddiy dunyo o‘z-o‘zicha qimmatli emas. Qadriyat va arzirli narsa sufiy nazarida, bu ruh bilan, iloh bilan bog‘liq. Shoira shunday yozadi:

Qilma g‘urur ey ko‘ngul, kimga jahon vafo qilur,
Kimni sayd ayladi, g‘ussa bilan fano qilur.
Holi falakni, ey ko‘ngul mahridin aylagil xazar,
Yo‘qsa, seni firib ila domig‘a mubtalo qilur.
Men seni mustamandingam, ori,xudoyi lamyazal,
Qilsa birovni podshoh, birni anga gado qilur.[o‘sha devon. B.193]

“Dunyoning xirsi shunchalar berahm sayyodki uning domiga ilingan kimsani halok etmay qo‘ymas, chunki Sayyodning domiga ilingan sayd o‘limga mahkumdur, seni esa (Nodira) allohni sevmoq va unga tayanmoqgina halokatdan asraydi”.

Tasavvuf bilan badiiy ijod orasidagi yaqinlikni sufiylar va ijodkorlarning ruhan yakinligidan ham izlasa bo‘ladi. Sufiylik iste’dodi “jazba" mavjud bo‘lib, bu ishq-ilohiy junundir. Kishi qalbida ilohni bilish muhabbati,unga yetishish zavqi shu qadar kuchli bo‘ladiki, u o‘zini to‘xtata olmaydi. Hamma narsani unutib Maxbuba visoliga intiladi. Bu ulug‘ va mukarram bir DARD, ana shu dard-jazba tugunchasi darveshlik bilan shoirlikni keng ma’noda esa tasavvuf bilan ijod xususiyatlarini bir-biriga yaqinlashtiradi. ya’nikim darveshlik iste’dodi g‘ayri tabiiy xislatga molik bo‘lish shoirlarga ham xosdir.

Ishim yo‘qtur jahonning yaxshi-yu yomonig‘a
Muruvvat ko‘z tutib olamda yaxshidin, yomondin ham.
Erur ishqu - muhabbat muddao ijodi olamdin
G‘araz bu jazbayi tavfiqdur kavnu makondin ham.[O‘sha devon.B.205.]

Ushbu misralardan seziladiki, shoira tasavvuf falsafasidan yaxshi xabardor bo‘lgan, o‘rgangan, rivojlantirishga harakat qilgan.

Mohlar oyim - Nodira ijodi o‘z davrida ma’lum va ijtimoiy, siyosiy va estetik qarashlar zaminida shakllandi. Nodira dunyoqarashining takomilida uning o‘zi mansub bo‘lgan islom dunyosining ma’naviy ta’siri katta o‘rin tutadi. Shoira Komila devonining debochasini olloh hamdi, payg‘ambar na’ti va hadislarga ishoralar bilan ochilishi shoiraning Islom dunyosi bilimlaridan chuqur va har tomonlama xabardor ekanligini ko‘rsatadi. Nodira she’riyat maydoniga qadam qo‘yar ekan, shu yo‘lda A.Navoiy va Jomiy, Fuzuliy va Bedil ijodlaridan bahramand bo‘ldi. Bu ulug‘ zotlar esa hamma diniy va dunyoviy bilimlarni chuqur egallagan, ularning hamma yaxshi jihatlarini o‘z asarlari orqali yuksak badiiy shakllarda ifodalab, xalq hurmatiga sazovor bo‘lgan siymolardan edilar. Nodira ana shu ustozlari yo‘lidan borar ekan

(cc) BY

asarlarida islom dinining falsafiy ta’limiy jihatlaridan ruhiy madad oladi va she’rlarida inson va tabiatning rang -barang tasvirlarida uning muqaddas kitoblarga alohida hurmati, muhabbati ufurib turadi. Shoiraning quyidagi qaydlari nihoyatda diqqatga sazovordir: "Ulamoyi din rivojlariga imtod yetkurdim, to shar’i sharif rivoj topdi, zuhud ahlig‘a ixlos va aqidatan zohir qildim to dini mamlakat kamol topdi.” Shoiraning devonlarida uning hayotga bo‘lgan umidvor qarashlari, xotin-qizlarning bir lahza zavqli, ya’ni bir lahza achchik taqdiridan tortib, unga umid baxsh etuvchi xayotning hamma mo‘jizalari yuksak san’at bilan jozibador tarannum etiladi. Shuning uchun ham shoira Komila devonining debochasida "shoyadki sabablar va sohibdil ulul-alboblarga manzuru nazar bo‘lib duoyi xayr birla yod qilg‘aylar”, shuningning uchun:

Yo rab bu savod ishqda sodiq bo‘lgay,
Iqbol bayozig‘a muvofiq bo‘lg‘ay
Ishq ahlining xotiri bo‘lib xush andin,
Maqbuli tabiat haloyiq bo‘lgay- deb umid bog‘laydi.

Dunyo ishlariga beparvo, osoyishta qalbning fazoviy mushohadalari tafakkur va xayol parvozi, koinot qatlamlari bilan yashirin suhbat qurib, ruhi koinotlarning ajabtovur mo‘jizalari, hikmat va donish ne’matlaridan bahramand bo‘lish - tariqat ahlining saodati shu edi.

Bo‘ylakim nutqi ravon bahshing erur poku maleh
Tilga keltirma adab birla iboroti qabih.

Yana dildan ishonmoq, pok e’tiqod ila yaxshilikka xizmat qilmoq har bir muruvvatni yurak qoni ila sug‘ormoq shoira uchun muborak burch.

Shakkaram az nay nabuvad muddao,
Xush dil ast az mijayi tar laziz
Har chi rasad az tu buvad komi jon,
Ey, hama lutfi tu sarosar laziz.
Xurdashi g‘am maqsadi Maknuna ast
Nest az in tu’ma nikutar laziz

Tarjimasi:

Menga qamish shakari kerak emas, balki ho‘l kiprikdan tomgan yurak qoni lazizdir. Har bir narsa sendan yetsa, u jonning maqsadidir. Ey, hamma lutfi boshdin - oyoq laziz bo‘lgan zot, Maknunaning maqsadi ishq g‘amini yemoq, u uchun bundan lazizroq taom yo‘q. Nodira (Maknuna)ning lirik qahramoni iztiroblar, sog‘inchlar, firoqlar ichra komillikka intiladi.

Nodira butun hayoti va ijodi davomida insoniy, islomiy axloqqa rioya qilib yashadi. U islomiy ayol sifatida ham barchaning e’tiborini qozona oldi, hamisha poklikka, buyuklikka intilib yashadi, xalqini chuqur, ilohiy mehr bilan sevdi.

(cc) BY

Dunyoning mohiyati - inson uchun, uning hayoti ham botiniy, ham zohiriy olamini poklamoq uchun kurashdan iborat edi.

Shoira ijodida beqiyos mehr, muhabbat, vafo-sadoqat o‘z haykalini yaratgan bo‘lsa, hayoti esa iroda aql-zakovat, buyuklik timsoli bo‘lib qoldi.

Nodirani nafaqat shoira, balki dunyo ilmlarini o‘rgangan, unga amal qilishga, ham boqiy, ham foniy dunyo asolarini tutishga erisha olgan irodali, buyuk inson, zukko olima sifatida ham qadrlamog‘imiz lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A. Navoiy. Asarlar. 15 jildlik. 15 jild. Toshkent. G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot 1968 y.

2. Nodira.Devon. Toshkent, U Z D A nashr.1963.

3. Nodira. Asarlar to‘plami. Toshkent.G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot, 1971 y.

4. Mo‘minov I. Uzbekistonda ijtimoiy falsafiy fikrlar tarixiga doir.Toshkent, “Fan” 1959 y.

5. Tulenov M. G‘ofurov E. Falsafa. Toshkent, O‘qituvchi",1997 y.

6. Qodirova M. Nodira",Toskent. fan" 1992 y.

7. Komilov N. Tazarru. Toshkent,"Yozuvchi", 1996 y..

8. Komilov N.Komillik tariqati. Tafakkur jurnali, 1998 y. 2-Son

9. Imomnazarov M. Milliy uyg‘onish ma’naviy tilimiz taraqqiiyoti bosqichlari. Toshkent, 1997 y.

(cc) BY